

ZAMONAVIY SPORTDA DOPING MUAMMOSI: OQIBATLARI VA QARSHI CHORA-TADBIRLAR

Tursunova Nazokat Qaxramonjon qizi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti magistranti, O‘zbekiston, Chirchiq sh.

E-mail: qaxramonovnanazokat@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15768990>

Annotatsiya: Jahon Antidoping Agentligi (WADA) tomonidan ishlab chiqilgan me‘yoriy hujjatlar, xalqaro tajribalar hamda O‘zbekiston sport tizimidagi holat asosida doping muammosining salbiy oqibatlari va unga qarshi chora-tadbirlar o‘rganilgan. Tadqiqot davomida sportchilar, xususan, jangovar san‘at vakillari – taekvondochilar pozitsiyasidan yondashilgan bo‘lib, dopinga bo‘lgan munosabat, axloqiy mezonlar va bilim darajasi tahlil qilingan. Maqolada dopinga oid sog‘liq, axloq va qonunchilik nuqtai nazaridan baholovlar keltirilgan hamda so‘rovnoma natijalari, statistik tahlillar asosida xulosa va takliflar ilgari surilgan. Doping vositalarining sportchiga ko‘rsatadigan ta‘siri, milliy antidoping siyosatining amaldagi holati hamda yosh avlodni bu xatardan asrash masalasi asosiy muhokama markaziga aylangan. Shuningdek, sport tizimida halollik tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan tavsiyalar ham bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Doping, sport etikasi, antidoping siyosati, WADA, taekvondo, sportchilar sog‘lig‘i, halollik tamoyili, testlash tizimi, huquqiy me‘yorlar, sportda axloq.

THE PROBLEM OF DOPING IN MODERN SPORTS: IMPACTS AND COUNTERMEASURES

Abstract: Based on regulatory documents developed by the World Anti-Doping Agency (WADA), international experiences, and the current situation in Uzbekistan’s sports system, this study explores the harmful consequences of doping and the measures taken against it. The research particularly focuses on the views of athletes, especially representatives of martial arts – taekwondo practitioners – analyzing their attitudes, ethical standards, and level of awareness regarding doping. The article presents evaluations from health, ethical, and legal perspectives and offers conclusions and recommendations based on survey results and statistical analysis. The discussion centers on the effects of doping substances on athletes, the current state of national anti-doping policy, and the need to protect the younger generation from this threat. Recommendations are also made to strengthen the principles of integrity in the sports system.

Keywords: Doping, sports ethics, anti-doping policy, WADA, taekwondo, athletes’ health, principle of integrity, testing system, legal norms, morality in sports.

ПРОБЛЕМА ДОПИНГА В СОВРЕМЕННОМ СПОРТЕ: ПОСЛЕДСТВИЯ И МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ

Аннотация: На основе нормативных документов, разработанных Всемирным антидопинговым агентством (WADA), международного опыта и текущего состояния спортивной системы Узбекистана в исследовании изучены негативные последствия допинга и меры противодействия ему. В процессе исследования был применён подход с точки зрения спортсменов, в частности, представителей боевых искусств – тхэквондистов. Проанализировано их отношение к допингу, уровень знаний и этические ориентиры. В статье представлены оценки влияния допинга на здоровье, мораль и законодательство, а

также приведены выводы и предложения, основанные на результатах анкетирования и статистического анализа. Основное внимание уделено влиянию допинговых веществ на спортсмена, состоянию национальной антидопинговой политики и вопросам защиты молодежи от этой угрозы. Также изложены рекомендации по укреплению принципов честности в спортивной системе.

Ключевые слова: Допинг, спортивная этика, антидопинговая политика, WADA, тхэквондо, здоровье спортсменов, принцип честности, система тестирования, правовые нормы, мораль в спорте.

KIRISH

Zamonaviy sportda erkin raqobat, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va halollik prinsiplariga asoslanish eng muhim qadriyatlar sirasiga kiradi. Biroq, so‘nggi yillarda sportchilar orasida natijalarni sun‘iy ravishda oshirish maqsadida dopingga murojaat qilish holatlari ortib bormoqda. Jahon Antidoping Agentligi (WADA) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda 362 000 dan ortiq doping sinovlari o‘tkazilgan, ulardan 1,8 foizida taqiqlangan moddalarning mavjudligi aniqlangan. Bu esa har 55 ta sportchidan kamida 1 nafari dopingdan foydalanganini anglatadi. Dopingdan foydalanish nafaqat sportchining sog‘lig‘iga jiddiy zarar yetkazadi, balki musobaqalardagi adolat tamoyilini buzadi, yosh avlodda noto‘g‘ri qadriyatlar shakllanishiga sabab bo‘ladi. Ayrim sportchilar anabolik steroidlar, eritropoetin (EPO), diuretiklar, yoki qon dopingi kabi usullardan foydalangan holda yuqori natijalarga erishgan, ammo keyinchalik ularning sovrinlari bekor qilingan, sport faoliyati taqiqlangan. Masalan, amerikalik velosportchi Lens Armstrong 7 marotaba Tour de France chempioni bo‘lgan, ammo 2012-yilda barcha yutuqlari bekor qilinib, sportdan umrbod chetlashtirilgan. Doping muammosi nafaqat rivojlangan mamlakatlarda, balki Osiyo, Lotin Amerikasi va Yevrosiyo mintaqalarida ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Bu borada O‘zbekiston ham xalqaro antidoping siyosatiga qo‘shilib, Milliy Antidoping Agentligini tashkil qilgan va Tokio-2020 Olimpiadasidan oldin 200 dan ortiq test o‘tkazgan. Biroq, xalqaro me‘yorlarga to‘liq rioya qilish, zamonaviy test usullarini joriy etish va sportchilarni doimiy ravishda ogohlikka chaqirish zarurati mavjud.

Shu sababli, doping muammosining zamonaviy sportdagi oqibatlarini chuqur o‘rganish, tibbiy, ijtimoiy va huquqiy jihatdan tahlil qilish, shuningdek, unga qarshi samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish zamonaviy sport siyosatining muhim vazifalaridan biridir.

Tadqiqot maqsadi. Zamonaviy sportda doping muammosining salbiy oqibatlarini o‘rganish va unga qarshi samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

1. Doping vositalarining sportchilarga ta‘sirini tahlil qilish.
2. Doping bilan bog‘liq holatlarning ijtimoiy, psixologik va sog‘liq uchun oqibatlarini aniqlash.
3. Dopingga qarshi xalqaro va milliy kurash mexanizmlarini o‘rganish.
4. Sportda sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Doping muammosi bugungi kunda xalqaro sport maydonlarida halollik va sog‘lom raqobat tamoyillariga jiddiy tahdid solayotgan global muammolardan biridir. Jahon miqyosidagi yondashuvlar orasida Jahon Antidoping Agentligi (WADA) faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. U tomonidan ishlab chiqilgan “World Anti-Doping Code” (2021) hujjatida dopingga qarshi kurashning normativ-huquqiy, tibbiy va texnik standartlari belgilangan[1]. Ushbu kodeks 190 dan

ortiq davlatlar va yuzlab xalqaro sport federatsiyalari tomonidan qabul qilinib, majburiy amal qilinmoqda. So'nggi yillarda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarda, xususan L. J. Mottram (2020) tomonidan o'rganilganidek, dopingga qarshi kurash borasida mavjud yondashuvlarning samaradorligi muhokama qilinib, qonunchilikdagi tafovutlar, sportchilarning himoya huquqlari va dori vositalarining aniqlanish darajasi tahlil qilinadi[2]. Shu bilan birga, Backhouse va boshqalar (2014) sportchilarning doping vositalaridan foydalanishga bo'lgan psixologik moyilliklariga ijtimoiy muhit, murabbiylar bosimi va moliyaviy rag'batlantirish omillarining ta'sirini asoslab bergan. WADAning 2022-yilgi global hisobotiga ko'ra, yil davomida 362 mingdan ortiq doping testlari o'tkazilgan bo'lib, shundan 1,8 foizi musbat natija bergan. Bu esa har 55 ta testdan birida taqiqlangan moddalar qo'llanilganini anglatadi. Ayniqsa, Hindiston, AQSH va Rossiya kabi sport salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlarda musbat holatlar soni ko'pligi alohida ta'kidlanadi[3].

MDH davlatlari adabiyotlarida esa bu masalaga biroz boshqa yondashuv kuzatiladi. Rossiyalik olimlar E. A. Drozdov va T. V. Makarova (2018) o'zlarining antidoping monitoringi haqidagi tadqiqotlarida Rossiyada dopingga qarshi kurashda muvofiqlashtirish muammolari, shuningdek, laboratoriyalar faoliyatida mustaqillik yetishmasligi muammosini ko'tarishgan. Ularning fikricha, sportchilarga qo'yiladigan haddan tashqari yuqori talablar, federatsiyalarning bosimi va ba'zan dori-darmonlarning nazoratdan chetda qolishi doping qo'llanishiga yo'l ochadi. Masalan, Rossiya sportida birgina 2015-yilda aniqlangan 80 dan ortiq holatdan so'ng, davlatning ko'plab federatsiyalari xalqaro musobaqalardan chetlashtirilgan edi. Qozog'iston esa so'nggi yillarda 1200 dan ortiq testlar o'tkazgan bo'lib, 2,3% musbat natijalar bilan doping nazorati borasida muvozanatli yondashuvni rivojlantirmoqda [5].

O'zbekistonda esa dopingga qarshi kurash sohasida izchil yondashuv 2020-yilda Prezident qarori asosida Milliy Antidoping Agentligi tashkil etilgach boshlangan. Bu boradagi ilmiy tahlillar, xususan M. Raxmonova (2022) tomonidan olib borilgan izlanishlarda, milliy qonunchilikning xalqaro standartlarga moslashayotgani, biroq hanuzgacha sportchilar va murabbiylar orasida yetarli darajadagi xabardorlik mavjud emasligi qayd etiladi. Jismoniy tarbiya va sport universitetida olib borilgan 2021–2023-yillardagi so'rovnomalarga ko'ra, sportchilarning qariyb 60 foizi doping vositalarining turlari, ta'siri va jazosi haqida to'liq ma'lumotga ega emas. Bu esa nafaqat profilaktik ishlar, balki tizimli ta'lim va tarbiya vositalari orqali muammoni bartaraf etish zaruratini ko'rsatadi[6]. Xulosa qilib aytganda, xalqaro va MDH davlatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, dopingga qarshi kurashda nafaqat nazorat, balki profilaktika, psixologik tayyorgarlik, sport etikasini shakllantirish ham muhim o'rin tutadi. O'zbekiston bu borada endigina mustahkam huquqiy va institutsional asoslar yaratmoqda va xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda o'z antidoping siyosatini kuchaytirishga intilmoqda.

METODOLOGIYA

Zamonaviy sportda dopingga qarshi kurash muammolarini taekvondo sportchisi nuqtai nazaridan nazariy-tahliliy yondashuv asosida yoritadi. Mavzuning dolzarbligi dopingga qarshi xalqaro harakatlar kuchayib borayotgan bir davrda, ayniqsa sport etikasining amaliy ifodasi bo'lgan jangovar san'at vakillari – jumladan, taekvondochilar – orasida bu masalani tushunish va unga faol munosabat bildirish zaruratida namoyon bo'ladi. Tahlil jarayonida mavjud xalqaro adabiyotlar, WADA (World Anti-Doping Agency) kodeksi, MDH va O'zbekiston tajribalari asos qilib olindi. Shuningdek, sport amaliyotida bevosita duch kelinayotgan vaziyatlar, doping vositalari haqida sportchilar orasidagi tushunmovchiliklar, yutuq ortidan quvishda halollik mezonlarining buzilishi holatlari ham e'tiborga olindi. Maqolada dopingga oid qonunchilik bazasi, psixologik va sotsiokulturning omillarning ta'siri, statistik ma'lumotlar, individual kuzatishlar va


ilgari chop etilgan ilmiy manbalar o‘zaro bog‘langan holda tahlil qilinadi. Shaxsiy sport faoliyatim davomida, musobaqa oldi tayyorgarlik, murabbiylar ko‘rsatmalari va sportchilar o‘rtasidagi muloqot jarayonida doping vositalari haqidagi noto‘g‘ri qarashlar, ba‘zan esa ushbu moddalarning “norma” sifatida qabul qilinishi holatlariga guvoh bo‘lganman. Aynan mana shu amaliy tajriba, maqolani faqat nazariy asoslar bilan emas, balki sportchining ichki dunyosi va professional pozitsiyasi bilan boyitishga zamin yaratdi.

Yondashuv sifatida tavsifiy (deskriptiv) va tahliliy (analitik) metodlar birgalikda qo‘llanildi. Mavzuga doir ilg‘or tadqiqotlar tanlab olinib, ularning mantiqiy tahlili asosida sportchining amaliy haqiqat bilan to‘qnashgan holatlari bilan uyg‘unlashtirildi. Maqola sportchilarning dopingga qarshi ongini shakllantirishga, adolatli raqobat va ruhiy poklikni saqlashga qaratilgan ilmiy-nazariy mulohazalarni ilgari suradi.

NATIJARLAR

Tadqiqot davomida o‘rganilgan adabiyotlar, xalqaro hujjatlar, statistik ma‘lumotlar va sport amaliyoti asosida quyidagi asosiy xulosalar va kuzatishlarga kelindi:

1. **Zamonaviy sportda dopingga qarshi kurashishning tizimli yondashuvi hali ham global darajada bir xil emas.** Ayrim mamlakatlar (AQSH, Germaniya, Yaponiya) dopingga qarshi qat‘iy tizimlarni joriy qilgan bo‘lsa, boshqalarida bu holat yuzaki darajada qolmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda test laboratoriyalarining yetishmasligi va sportchilarni ma‘naviy tayyorlashdagi zaifliklar kuzatilmoqda.



1-rasm. 2020–2024-yillarda doping holatlari statistikasining hududlar kesimidagi tahlili

Sportchilarning, xususan jangovar sport vakillarining, dopingga bo‘lgan munosabati ikkiyoqlama. Ba‘zilar uni natija vositasi sifatida ko‘rsa, boshqalar axloqiy mezonlarga sodiq qolgan holda qarshi turadi. Taekvondo sportchisi sifatida shuni aytish

mumkinki, musobaqada yutishdan ko‘ra halollik, nazoratli energiya va sport etikasi muhimroq qadriyatlaridir.

1-jadval. Doping vositalarining asosiy turlari va ularning organizmga salbiy ta’siri

Doping vositasi turi	Foydalanish maqsadi	Organizmga salbiy ta’siri
Anabolik steroidlar	Mushak massasini oshirish, kuchni ko‘paytirish	Jigar shikastlanishi, yurak kasalliklari, gormonal buzilishlar
Eritropoetin (EPO)	Qon tarkibidagi kislorod tashuvchi hujayralarni ko‘paytirish	Qon quyuqlashuvi, insult xavfi, yurak xurujlari
Stimulantlar (amfetamin, kofein)	Charchoqni kamaytirish, hushyorlikni oshirish	Asabiylik, yurak urishining tezlashishi, qaramlik
Diuretiklar	Vazn yo‘qotish yoki taqiqlangan moddalarning izini yashirish	Organizmning suv-tuz balansining buzilishi, buyrak kasalliklari
Qon dopingi (autolog yoki allogen)	Jismoniy chidamlilikni oshirish	Qon infeksiyalari, yurakka ortiqcha yuklama

2. O‘zbekistonda dopinga qarshi qonunchilik shakllanmoqda, biroq real ta’sirchanlik uchun tizimli targ‘ibot, ta’lim va monitoring zarur. Milliy Antidoping Agentligi faoliyat boshlagan bo‘lsa-da, uning sportchilar bilan bevosita ishlashi yetarli darajada emas. Ayniqsa, viloyatlarda testlash va nazorat mexanizmlari past darajada tashkil etilgan.

2-jadval. O‘zbekiston sport federatsiyalarida dopinga qarshi testlar soni va ijobiy natijalar foizi

Sport turi	O‘tkazilgan testlar soni (2023)	Ijobiy natijalar soni	Ijobiy natijalar foizi (%)
Taekvondo	120	2	1.7
Yengil atletika	180	5	2.8
Og‘ir atletika	210	8	3.8
Erkin kurash	150	3	2.0
Boks	170	4	2.4

3. Jismoniy tarbiya oliygohlarida va sport maktablarida dopinga oid bilimlar sportchilar ongiga chuqur singmagan. O‘tkazilgan so‘rovnomalarga ko‘ra, yosh sportchilarning katta qismi dori vositalarining qonuniy va taqiqlangan turlarini ajrata olmaydi. Bu holat natijada bilmasdan qoidabuzarlikka sabab bo‘lmoqda.

3-jadval. Sportchilarning dopinga oid bilim va xabardorlik darajasini aniqlovchi so‘rovnoma natijalari

Sportchilar guruhi	So‘rovda qatnashganlar soni	Dopinga oid to‘liq ma’lumotga ega (%)	Doping va ruxsat etilgan vositalarni ajrata olmaydi (%)	Dopingni axloqiy jihatdan qabul qilmaydi (%)

14–17 yosh sportchilar	100	28	52	76
18–22 yosh sportchilar	120	35	45	82
Professional sportchilar	80	60	25	90
Murabbiylar	50	72	12	94
Sport maktabi o'qituvchilari	60	65	18	91

MUHOKAMA

Doping muammosini zamonaviy sport doirasida nazariy va amaliy jihatdan o'rganish shuni ko'rsatadiki, ushbu hodisa nafaqat sportchilarning sog'lig'iga, balki butun sport tizimining axloqiy va ijtimoiy asoslariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro miqyosda Jahon Antidoping Agentligi (WADA) tomonidan ishlab chiqilgan kodekslar va normativ hujjatlar aniq mexanizmlarni taklif qilsa-da, amaliyotda bu tizimlar turli davlatlarda turlicha darajada amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, MDH davlatlari va rivojlanayotgan mamlakatlarda laboratoriya imkoniyatlari, mustaqil nazorat institutlari va sportchilarni ma'rifiy tayyorlash mexanizmlari hali to'liq shakllanmagan. Taekvondo sportchisi sifatida amaliy kuzatuvlarimga tayansam, musobaqalardan oldingi tayyorgarlik jarayonlarida ayrim sportchilarda energetik vositalar, gormonlar yoki suyuqlik chiqaruvchi dorilardan foydalanishga moyillik mavjud. Bu holat, bir tomondan, bilim yetishmasligi, ikkinchi tomondan esa natijadorlikka haddan tashqari urg'u berilayotgani bilan bog'liq. Maqolada keltirilgan 3-Jadval so'rovnoma natijalari aynan shuni tasdiqlaydi — yosh sportchilarning katta qismi dopinga oid bilimlardan bexabar bo'lib, ularning qarorlari ko'proq atrofdagilarning ta'siriga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, 3-Jadval orqali ko'rilganidek, O'zbekiston sport federatsiyalarida dopinga qarshi testlar soni cheklangan va bu testlarning sifati haqida jamoatchilikka yetarli axborot berilmaydi. Holbuki, antidoping kurashida ochiqlik va monitoring samaradorlikning asosiy omillaridan biridir. O'zbekistonda bu borada normativ asoslar yaratilgan bo'lsa-da, amaliy qo'llanilish va profilaktik ishlar hanzu yetarli emas.

Taekvondo falsafasi o'z mohiyatida ruhiy poklik, o'zini nazorat qilish va halollik kabi qadriyatlarga tayansa-da, amalda bu qadriyatlar sport muhitida turlicha talqin qilinmoqda. Dopinga qarshi kurash faqatgina tekshiruvlar orqali emas, balki sportchilar tafakkurida axloqiy immunitetni shakllantirish orqali ham olib borilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, nazariy tahlillarning sport amaliyotiga yondoshuvi, ayniqsa yosh avlod orasida, dolzarb ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

O'tkazilgan tahlillar va kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy sportda doping muammosi nafaqat tibbiy va huquqiy, balki axloqiy, psixologik va sotsiokultural masala sifatida ham yondashuvni talab etadi. Dopinga qarshi kurashni samarali tashkil etish uchun faqat jazo choralari kuchaytirish emas, balki sportchilar tafakkurida halollik, sport etikasi va ijtimoiy mas'uliyat qadriyatlarini shakllantirish zarur. Xalqaro va MDH davlatlari tajribasi asosida aniqlanganki, dopinga qarshi tizimlar samaradorligi bevosita uch omilga bog'liq: test tizimlarining sifatli tashkil etilishi, ma'rifiy ishlarning tizimlashtirilganligi va sportchi jamiyatida ijtimoiy pozitsiyaning yuksakligi. O'zbekistonda bu borada huquqiy asoslar mavjud bo'lsa-da, testlar

sonining kamligi, sport federatsiyalarining ma'rifiy va axborotiy yetakchiligi sustligi muammoning chuqurlashishiga olib kelmoqda.

Taekvondo sportchisi sifatida anglash kerakki, raqobatda yutishdan ko'ra sportchining o'ziga, jamiyatiga va raqibiga bo'lgan halol munosabati ustuvor turishi lozim. Aynan mana shu yondashuv sportda sog'lom muhit, barqaror rivojlanish va xalqaro ishonch mezonlarining poydevoridir.

Shu asosda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. O'zbekistonning sport maktablari, akademiyalari va federatsiyalarida dopingga oid bilimlarni o'rgatish bo'yicha majburiy kurslar joriy etilishi;
2. Milliy Antidoping Agentligi faoliyatini hududiy bo'linmalar orqali kengaytirish va har bir sport turi bo'yicha profilaktik reja ishlab chiqish;
3. Sportchilar, murabbiylar va ota-onalar uchun maxsus ma'lumotnoma, mobil ilova va trening modullarini ishlab chiqish;
4. Yosh sportchilarni taqdirlashda faqat natijaga emas, balki axloqiy me'yorlarga sodiqlik ko'rsatkichlariga ham baho berish tizimini shakllantirish;
5. Taekvondo kabi jangovar san'atlarda axloqiy-pedagogik qadriyatlarni dopingga qarshi ichki "ruhiy qalqon" sifatida tarbiyalashni yo'lga qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-dekabrda PQ-4910-son qarori "Milliy antidoping agentligini tashkil etish to'g'risida".
2. Drozdov, E. A., & Makarova, T. V. (2018). *Antidopingovoye obespecheniye v sporte vysshikh dostizheniy*. Moskva: Sovetskiy sport.
3. Rakhmonova, M. (2022). O'zbekistonda dopingga qarshi kurashning huquqiy asoslari. *Sport va Jamiyat* ilmiy-amaliy jurnali, 2(1), 48–55.
4. WADA. (2021). *World Anti-Doping Code*. World Anti-Doping Agency. <https://www.wada-ama.org>
5. WADA. (2023). *Testing Figures Report 2022*. World Anti-Doping Agency. <https://www.wada-ama.org/en/resources>
6. Backhouse, S. H., Whitaker, L., & Petróczi, A. (2014). Gateway to doping? Supplement use in the context of preferred competitive situations, doping attitude, beliefs, and norms. *Scandinavian Journal of Medicine & Science in Sports*, 23(2), 244–252. <https://doi.org/10.1111/sms.12113>
7. Kazakh National Anti-Doping Centre. (2022). *Annual Report on Anti-Doping Testing and Violations*. Nursultan.
8. Uzbekistan National Anti-Doping Agency. (2023). *Dopingga qarshi kurash faoliyati bo'yicha statistik ma'lumotlar*. Toshkent.
9. Jismoniy tarbiya va sport universiteti ilmiy-tadqiqot markazi (2022). *Yosh sportchilarning dopingga oid bilim darajasini o'rganish bo'yicha monitoring hisobotlari*. Toshkent.